

INSONNING ILMIY BILISH FAOLIYATIDA ONG  
TARAQQIYOTI VA ONGSIZLIK

Ravshanov Farrux Utkir o'g'li

University of Business and Sciense

Pedagogika va psixologiya yo'naliши 3 kurs talabasi

tel: +998913380808

**ANNOTATSIYA.** Ushbu maqolada psixologiya va pedagogikada ilk ong tushunchasini keng tadqiq qilgan holda, bu tushuncha bilim, ko'nikmaga ega bo'lisl olrqali ijodiy fikrlash doirasini kengaytirish, ilmiy bilishni rivojlantirish va kerakli xulosalar chiqarish haqida so'z yuritilgan

**Kalit so'zlar:** Ijtimoiy mahsul, ong, ongsizlik, patologik hodisalar, gallyusinatsiya, til amaliy-haqiqiy ongdir.

**ABSTRACT:** This article explores the concept of first consciousness in psychology and pedagogy, expanding the scope of creative thinking through the acquisition of knowledge and skills, developing scientific knowledge and drawing the necessary conclusions.

**Keywords:** Social product, unconsciousness, pathological phenomena, hallucinations, language is practical-real consciousness.

**KIRISH.** Psixika voqelikning kishi miyasida aksi sifatida har xil darajalar bilan farqlanadi. Psixikaning odamga xos bo'lgan oliy darajasi ongni tashkil etadi. Ong psixikaning uni yaxlit bir holga keltiruvchi shakli bo'lib kishining mehnat faoliyatida, boshqalar bilan til yordamida muloqot qilish jarayonida shakllanishini ijtimoiy tarixiy shart-sharoitlari natijasi hisoblanadi. SHu ma'noda ong marksizm klassiklarining ta'kidlashicha ijtimoiy mahsul bo'lib anglagan borliqdan buyuk boshqa narsa emasdir. Ongning strukturasi tuzilishi, uning muhim psixologik ta'rifi qanday. Uning birinchi ta'rifi-nomining o'zidayoq berilgan bo'lib, ong deganidir. Odamning fikrlash qobiliyati nazarda tutilganda, ong va aql atamalari ma'nosib bir-biriga mos keladi: Ong ham, aql ham odam miyasining mahsulidir. Odam anglaydi, ya'ni aql yuritadi, fikrlaydi. Odamning ijtimoiy hayotni tushunishi, sezishi, unga munosabati uning ongida yuz beradi. Siyosiy ong, ijtimoiy ong iboralari ana shundan kelib chiqqan. Voqelikning kishi miyasida uning butun ruhiy faoliyatini o'z ichiga olgan va ma'lum maqsadga yo'naltirilgan holda aks etishi ongning zuhuridir. Ong, shuningdek kishining ruhiy, siyosiy, falsafiy nuqtai nazari, diniy, badiiy qarashlarining ham majmui hisoblanadi. Ijtimoiy ong deganda ana shular nazarda tutiladi. Ongli kishi deganda ongga ega, aqlidrokli odam tushunilsa, ongli hayot iborasida esa bir maqsadga yo'naltirilgan turmush ifodalanadi. Voqelikni, ijtimoiy hayotni, o'zining mavqeい hamda tarixiy va fuqarolik burchini tushunadigan, ongi yuksak odamga nisbatan ongli iborasi juda to'g'ri keladi. Muayyan tushunchaga ega, bilimli, madaniyatli kishiga nisbatan ham ongli iborasi ishlataladi. Ongli ravishda fikr yuritish – bu ong, aqlidrok bilan ish tutishdir. Odam

## MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

atayin, ko‘ra-bila turib ham, ya’ni ongli ravishda biror yomon ishga qo‘l urishi mumkin. Bu uning qilmishi deyiladi. Odamning zakovat darajasi – fahmi, idroki, zehni, donoligi, yetukligi uning aqliga bog‘liq. Aqli raso deganda, miyasi butun kishi tushuniladi. Aqli qisqa yoki kalta deganda, fahm-farosati yo‘q odam nazarda tutiladi. Bu so‘z es-hush ma’nosini ham bildiradi, mulohaza, maslahat ma’nolarini ham ifodalashi mumkin. Masalan, aql bilan ish tutdi, desak, mulohaza bilan, o‘ylab ish qilingani ma’lum bo‘ladi. Xullas, ong voqelikni, ya’ni borliqdagi barcha narsa va hodisalarini aks ettirishning yuksak, faqat odamga xos shakli. Ong til bilan bog‘liq.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.** Kishining ongi bizning tevarak atrofimizni qurshab turgan olam haqidagi bilimlar majmuasidan tarkib topdi. K.Marks. «Ongning yashash usuli va ong uchun nimaningdir borligi bilimdir». deb yozgan edi. Ongning strukturasiga muhim bilish jarayonlari kiradi. Ular yordamida odam o‘z bilimlarini doimo boyitib boradi. Bu jarayonlar qatoriga sezgilar va idrokni, xotirani, xayol va tafakkurni qo’shish mumkin. Sezgilar va idrok yordamida miyaga ta’sir etuvchi kuzatuvchilarning bevosita aks etishi natijasida ongda borliqning o’sha momentda kishi tasavvurida hosil bo’lgan hissiy manzarasi gavdalanadi. Xotira ongda o’tmis obrazlarini qaytadan gavdalantiradi. Xayol ehtiyoj ob’ekti bo’lgan ammo hozirgi paytda yo‘q narsning obrazli modelini hosil qiladi. Tafakkur umumlashgan bilimlardan fodalangan yo‘li bilan masalaning hal etilishini ta’minlaydi. Aytib o’tilgan psixik bilish jarayonidan istalgan birining batamom barbod bo’lishiga olib keladi. Ongning ikkinchi ta’rifi unda sub’ekt bilan ob’ekt o’rtasida aniq farqlanishni o’ziga ifodasini topishi, ya’ni odam «men» degan tushunchaga nimá tegishli ekanini aniqbiladi. Tirik organizmlar duyosi tarixida birinchi bo’lib unda ajralib chiqqan va o’zini atrof-muhitiga qaramaqarshi qo’yan inson o‘z ongida ushbu arama-qarshilik va tafovutni saqlab kelmoqda. Jonli mavjudotlar ichida uning o’zagina o’zini bilishga ya’ni psixik faoliyatini o’zini tadqiq etishga yo’naltirishga qodirdir. Odam o‘z hatti-harakatlariini va umuman o’zini-o’zi ongli ravishda baholaydi. «Men»ning «men emas» degan ajratish har bir kishi kishi bolaligida boshdan kechiradigan yo’l bo’lib, uni o’zidan o’zi anglashi jarayonida yuz beradi. Ongning uchinchi ta’rifi-odamning maqsadini ko’zlovchi faoliyatini ta’minlashdir. Faoliyatning maqsadlarini yaratish ongning funktsiyasiga kiradi. Bunda faoliyat motivlari yuzaga keladi va chamlab chiqiladi. Irodaviy qarorlar qabul qilinadi. Harakatlarni bajarishning qanday borishi hisobga olinadi. Unga tegishli tuzatishlar kiritiladi va hakazo. Ong – aql-tafakkurni ifoda etadigan asosiy falsafiy kategoriyalardan biri. Ong ko‘p qirrali va murakkab bo’lgani tufayli falsafa, psixologiya, psixiatriya, fiziologiya, kibernetika, informatika singari turli fanlarning o‘rganish obyekti hisoblanadi. Ong diniy talqinda ilohiy hodisa, Xudo yaratgan mo‘jiza tarzida talqin qilinadi. Ko‘pgina dinlarda inson ongi buyuk ilohiy aqlning mitti aksi, uning namoyon bo’lishi shakli tarzida ta’riflanadi. Inson tanasidagi ruh bizning istak va fikrlarimiz tashuvchisidir. Jon o’lishi bilan ong ham o‘ladi. Bunday qarashlarning ildizi juda qadimiy bo‘lsa-da, ular hamon o‘zining ko‘plab tarafdarlariga ega. Zero, ong odam va uning yaratilishi masalasi bilan bevosita bog‘liq. Kimda-kim olam va odam yaratilganini tan olar ekan, ong ham Yaratganning qudrati ekanini tan olishi tabiiy. Ong moddiylikning

## MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

miyada inson tanasi faoliyati bilan bog‘liq holda talqin qilinadi. XVIII asrga kelib, ongni bevosita inson miyasi faoliyati bilan bog‘lashga harakat qilgan qarashlar ham shakllandi. Ayni paytda, materialistik yo‘nalishdagi bunday yondashuvlar doirasida ongning mohiyatini buzib talqin qilish hollari ham uchragan. Falsafa tarixida “Vulgar materializm” deb nom olgan oqim namoyandalarining qarashlari bunga misol bo‘la oladi. Ularning fikricha, xuddi jigar safro ishlab chiqarganidek, miya ham ongni ishlab chiqaradi. Bunday yondashuv natijasida ong ideal emas, balki moddiy hodisa, degan xulosa kelib chiqadi. Vaholanki, safroni ko‘rish mumkin, ammo ongni ko‘rib ham, ushlab ham, o‘lchab ham bo‘lmaydi. Ong tarixi insonning inson sifatida shakllana boshlashi tarixi bilan bog‘liq. Uzoq vaqt davomida inson ongi planetar, ya’ni Yer shari darajasidagi hodisa sifatida qarab kelindi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR .** K.Marks «kishi tomonidan berilgan narsaning formasini o‘zgartirish bilangina cheklanmaydi, tabiat tomonidan berilgan narsalar bilan birga o‘zining ongli maqsadini ham amalga oshiradi. Bu maqsad qonun sifatida kishining ish usulini va bu ishning harakterini belgilab beradi va kishi o‘z irodasini ana hu maqsadga bo‘ysundirish lozim» deb ta’kidlagan edi. Maqsadni ko‘zlovchi faoliyatni amalga oshirishda va yo‘nalishida kasallik oqibatida yoki biron-bir boshqa sabablarga ko‘ra har qanday buzilishning yuz berishini ongning buzilgani deb qaramoq kerak. Ongning to’rtinchı ta’rifi-uning tarkibiga muayyan munosabatning kirganligidir. «Mening o‘z muhitimga bo‘lgan munosabatim meninng ongimdir» deb yozgan K.Marks. Ong — psixik faoliyatning oliy shakli. U fakat insonga xos fenomendir. Ong, uning mohiyati masalasi eng qad. muammolardan biri. Ongni dastlab diniy va mifologik karashlar doirasida tushuntirishga uringanlar. Ongni liniy tushuntirish uni iloxiy hodisa, xudo yaratgan mo‘jiza tarzida talkin qilishga asoslanadi. Ko‘pgina dinlarda inson Ongi buyuk ilohiy aqlning namoyon bo‘lish shakli tarzida tavsiflanadi. Bunday qarashlarning ildizi juda qad. bo‘lsada, ular hamon o‘zining ko‘plab tarafdarlariga ega. Kimki olam va odam yaratilganligini tan olar ekan, Ong ham yaratganning qudrati deb hisoblaydi. Ongsizlik (psixologiyada) — ong ishtirokisiz sodir bo‘ladigan ruhiy jarayon va holatlar. Ong, ko‘pincha, badan harakatida, xotira, xayolda na-moyon bo‘ladi. Real mavjud, lekin sezilmaydigan qo‘zg‘atgichlar vujudga keltiradigan javob ta’sirotlarida, asli ongli paydo bo‘lib, takrorlanishi natijasida avtomatlashib ketgan harakatlarda va boshqa holatlarda ro‘y beradi. Mac, odam o‘z o‘yxayollariga cho‘mgan holda uyiga qaytadi va har holda yo‘ldan adashmasdan keladi. Agar u biror xavfni sezib qolsa, bu xavfning sababi va qandayligini hali anglamasdan turib ham, himoya harakatini qiladi. Bemor psixikasida vujudga keladigan alahlash, gallyusinatsiya kabi patologik hodisalar, uxlash, gipnoz vaqtida, lunatizm va shahrik. chog‘ida yuz beradigan psixik faoliyat ham Ong holatiga kiradi. Freyd Ongni sof irratsionalis-tik tarzda talqin etadi. Uning fikricha, ong bilan Ong o‘rtasida murosasiz qarama-qarshilik bor. Insonning butun xattiharakati ana shu qarama-qarshilik bilan belgilanadi. Ongni odam anglashga va payqashga jur’at etolmaydi, u insondagi azaliy mayllar maskanidir. Ongsizlik sohasiga: biologik ehtiyojlar (jinsiy mayllar, tabiiy ehtiyojlar, ozuqaga bo‘lgan ehtiyoj va boshqalar); tilaklarni siqib chiqarish (kimningdir muhabbatini qozonishga behuda urinish, amalga oshmagan orzular,

## MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

yashirin hafagarchilik); tushda sodir bo'ladigan psixik hodisalar (tush ko'rish); sezilmaydigan, lekin real ta'sir ko'rsatadigan seskantiruvchilarga nisbatan javob reaktsiyalari («subsensor» ta'sirlanishlar); avval anglangan, lekin takrorlanishlar tufayli avtomatlashgan va shuning uchun anglanmaydigan bo'lib qolgan harakatlar; maqsadi anglanmagan faoliyatga nisbatan ayrim mayllar va boshqalar kiradi. Anglanmagan hodisalarga bemor odam psixikasida yuzaga keladigan alahlash, gallyutsinatsiyalar kabi ayrim patologik hodisalar ham kiradi.

**XULOSA.** Ongsizlik-kishini o'zini tuta olmaydigan qilib qo'yadigan taaassurotlar bilan bog'liq psixik jarayonlar harakatlar va holatlar yig'indisidir. Psixik holat sifatida ongsizlik voqelikni aks ettirishning shunday bir shakli hisoblanadiki, bunda harakat o'rni va vaqtini mo'ljal qilish, yaxlitligi yo'qoladi, hatti-harakatining nutq yordamida boshqarilshi buziladi. Ongsizlikka quyidagi psixik holatlarni kiritish mumkin: Uyqu paytida yuz beradigan psixik hodisalar (tush ko'rish) sezilmaydigan lekin haqiqatda ham ta'sir ko'rsatadigan kuzatuvchilarga javob reaktsiyalari: oldinlari ong harakat bo'lib, lekin takrorlanaverib avtomatlashib ketgan va shunga ko'ra endilikda anglanmaydigan bo'lib qolgan harakatlar faoliyatiga undovchi ammo maqsad hissidan anglanmaydigan ayrim moyillar, ongsizlik hodisalariga bemor kishining psixikasida ro'y beradigan ba'zi bir protologik hodisalarni-alahlash, ko'ziga yo'q narsalarning ko'rinishi kabilarni ham ko'rish mumkin. shularga, asoslanib ongsizlikning ongga qarama-qarshi deb hisoblash, uni hayvonlar psixikasiga tenglashtirish noto'g'ri bo'lar edi. Ongsizlik-bu kishining xuddi ong kabi o'ziga xos psixik qiyofasidirki, u kishi miyasida borliqning etarli darajada bir xil bo'lмаган qismiga aksi tarzida inson hayotining ijtimoiy shart-sharoitlari bilan bog'liq holda bo'lgandir.

### REFERENCES:

1. S.G.YAroshevskiy. A.N.Jdan. Bg'Yu.B. Gippereyter «Xrestomatiya» po istorii psixologii» M.Izd. «MGU»-2000.
2. A.N.Jdan. «Istoriya psixologii» M.Nauka. –1990.
3. A.V.Petrovskiy. «Umumiy psixologiya» T.Uzb. 2005 yil.
4. Yakubjonovna, N. M., & Shamsiddinovna, M. A. (2024). BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI PEDAGOGIK KOMPETENTLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK USULLARI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 47(3), 105-110.
5. Yakubjonovna, N. M., & Farhod og'li, X. A. (2024). YOSH AVLODNI TARBIYALASHDA OILA, MAHALLA VA MAKTAB HAMKORLIGIDA O'QITUVCHINING KASBIY KOMPETENTLIGINI OSHIRISH. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 47(3), 149-153.
6. Odilboyevich, J. X. (2023). Psychopathic character and psychopathological characteristics of delinquent behavior in children of adolescent and adolescent age. International Journal of Intellectual Cultural Heritage, 3(5), 99-104.

**MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS**

7. Jurayev, X. O. (2023). O ‘smirlarda xarakter aksentuatsiyasi tiplarining deviand xulq-atvor shakllanishiga ta’sirining psixologik mexanizmlari. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(9), 560-569.

8. Odilboyevich, J. X. (2024). O’SMIRLIK YOSH DAVRIDA SHAXSDA SUITSID XOLATLARINI PROFILAKTIKA QILISH YO’LARI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 47(3), 111-114.

